| <b>Turayev Nurbek Muxammadovich</b>  |     |
| Актуальные вопросы обеспечения экологической безопасности.....   | 919 |
| <b>Исройлов Боходир Ибрагимович, Хасанов Ойбек Мардонович</b>  |     |
| Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetdan qaytarish tartibini takomillashtirish .....  | 923 |
| <b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>   |     |
| Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....  | 927 |
| <b>Ochilova Maftuna Toshpulat qizi</b>   |     |
| Fermer xo'jaliklari samarali faoliyatini tashkil etishning asosiy omillari .....   | 932 |
| <b>M. Sh. Axmedova</b>   |     |
| Bank xizmatlarini shakllantirish bo'yicha xorijiy ilg'or davlatlar tajribasi.....  | 936 |
| <b>Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li</b>   |     |
| Ikkiyoqlama soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solishga oid ilmiy-nazariy qarashlar .....  | 941 |
| <b>Rajarov Shuxrat Zaripbayevich</b>   |     |
| Как достичь высоких показателей устойчивости и избежать гринвошиг или роль<br>ESG отчетности в достижении ЦУР в Узбекистане .....          | 947 |
| <b>Салахутдинова Юлдуз Голибовна</b>   |     |
| Moliyaviy firibgarliklarga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....                                     | 952 |
| <b>Gadaev Ismat Yadgarovich</b>  |     |
| Блокчейн-технология и информационная безопасность в цифровой экономике Узбекистана.....  | 955 |
| <b>Кадиров Алишер Исмаилович</b>   |     |



|  |      |
|--|------|
| O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uni takomillashtirish yo'llari.....                                 | 959  |
| <b>Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li, Tursunov Abdulkamid G'afurjon o'g'li</b>                                  |      |
| Soliq imtiyozlari ma'muriyatichiligining amaldagi holati tahlili.....  | 964  |
| <b>Nurmatov Sherzod Rustamovich</b>  |      |
| Issiqlik ta'minoti xizmatlari sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni baholash .....                             | 972  |
| <b>Abdulaziz Abdumo'minovich Matro'ziyev</b>   |      |
| The Use of Modern Management Methods in the Management of<br>Housing Stock in the Digital Economy Conditions ..... | 976  |
| <b>Mamanazarov Oybek Shomurodovich, Inoyatova Durdon Shoxaydarovna</b>   |      |
| O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yoshlarning roli .....  | 982  |
| <b>Beknazarov Bekzod Baxtiyor o'g'li</b>   |      |
| Korxonalarda innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish yo'nalishlari .....                                   | 987  |
| <b>Gafurova Umida Fatixovna</b>  |      |
| Davlat boshqaruvi tizimi va hududiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar .....                                     | 992  |
| <b>Tolibjon Qazaqov Sharifjon o'g'li</b>   |      |
| Sanoat korxonalarining strategik iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash .....  | 996  |
| <b>Uktamov Xusniddin Faxriddinovich</b>  |      |
| Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi .....           | 1000 |
| <b>Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich</b>   |      |
| Tadbirkorlik muhiti tahlili va uni davlat tomonidan tartibga solish shart-sharoitlari .....                        | 1005 |
| <b>S. T. Toshaliyeva, A. M. Abduraxmonov</b>   |      |
| Учет поступления и списания с учета основных средств в бюджетных организациях .....                                | 1010 |
| <b>Абдуллаева Нилуфар Джавдат кизи</b>   |      |
| Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....   | 1015 |
| <b>Sa'dullayeva Asaxon Muzaffarovna</b>  |      |
| Davlat budgetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llar.....                              | 1018 |
| <b>O'ktamova Nargiza Narzulla qizi</b>   |      |
| Sog'liqni saqlash tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning zaruriyati.....                                   | 1022 |
| <b>Meliyev Azimjon Murodullo o'g'li</b>  |      |
| Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda ichki audit xizmatining zarurligi .....                         | 1027 |
| <b>Shaymatova Nargiza Ashurovna</b>  |      |
| Hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy asoslari.....                                       | 1032 |
| <b>Tangriberdiyev Sulaymon Kamiljonovich</b>   |      |



# SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING ZARURIYATI

Meliyev Azimjon Murodullo o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda davlat ishitirokining nazariy va uslubiy jihatlari, bugungi kunda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili va sog'liqni saqlash tizimini davlat budjetidan moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'liqni saqlash, moliyalashtirish, davlat budjeti, islohot.

**Abstract:** This article presents theoretical and methodological aspects of state participation in financing the healthcare system, an analysis of the reforms being implemented today in the healthcare sector, as well as ways to improve financing of the healthcare system from the state budget.

**Key words:** healthcare, financing, state budget, reform.

**Аннотация:** В данной статье представлены теоретические и методологические аспекты участия государства в финансировании системы здравоохранения, анализ реформ, реализуемых сегодня в сфере здравоохранения, а также пути совершенствования финансирования системы здравоохранения из государственного бюджета.

**Ключевые слова:** здравоохранение, финансирование, государственный бюджет, реформа.

## KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy soha taraqqiyoti dunyo mamlakatlari barqarorligining muhim bo'g'iniga aylanib ulgurdi. Xususan, ko'plab davlatlarda ijtimoiy soha xarajatlari budjet xarajatlarining salmoqli qismini tashkil qiladi. Vaholanki, ijtimoiy sohalarni, jumladan, respublikamizda tibbiyat muassasalarini moliyalashtirishni yanigicha usullarini joriy qilish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholi sog'ligi darajasi ko'rsatichilarini barqarorlashtirish, o'rtacha umr ko'rish davriyigini uzaytirish hamda yakuniy natijalarga bo'lgan me'yorlarni ishlab chiqish ayni kundagi dolzarb masalalarga aylandi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev "... xalqimiz genofondini mustahkmalash maqsadida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko'lamini kengaytirish lozim. Bizning bosh maqsadimiz – nafaqat kasallikni davolash, balki uning oldini olishdan iborat. Tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini kengaytirish lozim. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar doirasi belgilanib, pullik va bepul davolanish o'ttasida aniq chegara o'rnatilishi kerak" - deya ta'kidlab o'tdi [1].

Mamlakatning istiqboli, kuch-qudrati, jahon hamjamiyati oldidagi obro'-e'tibori va salohiyati fuqarosining, sog'ligi oilaviy tinch-totuvligi, moddiy va ma'nnaviy barkomolligiga bog'liq. Respublikamizda mustaqillik qaror topganidan keyingi yillarda fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoyalash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan muayyan ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy iqtisodiy yangilanishlar jarayonida sog'liqni saqlashni isloq qilish alohida o'rinn tutadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'kidlash lozimki, sog'liqni saqlash sohasiga investisiyalarni yo'naltirish borasida ham qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, inson kapitalini rivojlantirish modellari investisiyalarni amalga oshirish miqyosi bo'yicha ham o'zaro farqlanadi. Masalan, amerika, yapon va shved modellari shular jumlasidandir.

Bu borada, N. Kabanova o'zining tadqiqotida inson kapitaliga investisiyalarni moliyalashtirish an'anaviy shaklida davlatning roli muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, deb ta'kidlab o'tadi [2].



Tizimni moliyaviy ta'minlash borasida davlat budgetining o'ziga xos jihatlari mavjud ekanligi tadqiqotlarda o'z aksini topib borgan. O'z navbatida, A.Oganesyan ham sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish manbalarini uchga ajratadi, xususan xususiy, majburiy sug'urta va davlat budgeti mablag'lari shular sirasiga kiradi. Jumladan, tibbiy xizmatlarning boshqa tovar va mahsulotlar kabi iste'mol hajmini mavjud talab va takliflar asosida insonlarning to'lov qobiliyatini inobatga olgan holda belgilashning imkonini mavjud emasligini qayd etadi. Shu boisdan, tibbiy xizmatlarni taqdim etishda qulaylik va tenglik prinsipi asosida iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy adolat yuzasidan amalga oshiriladi, degan xulosaga keladi [3].

Shu bilan birga, davlat budgetining o'ziga xos ahamiyati davlat bajarishi lozim bo'lgan funksiyalarida ham o'z aksini topadi. "Davlat aynan budgetning taqsimlash funksiyasiga tayanib, ixtiyoridagi markazlashgan moliya resurslarini shakllantiradi va uning yordamida umum davlat iste'mollarini pul resurslari bilan ta'minlaydi. Moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida sog'liqni saqlash sohasi muassasalarini budgetdan moliyalashtiriladi" [4].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'z faoliyatini olib borishi davomida quyidagilar uchun mablag'lar ajratmoqda (umumiy budgetga nisbatan, foizda) [5]:

- tibbiy-sanitariya tadbirlarini amalga oshirish maqsadida (53 foiz);
- a'zo mamlakatlarni samarali qo'llab-quvvatlashga (21 foiz);
- sog'liqni saqlashda turli dasturlar va tibbiy vositalarni etkazib berish (13 foiz);
- sog'liq determinantlariga (11 foiz);
- zaxira fondi (2 foiz).

Ko'rinish turibdiki, tibbiy-sanitariya xizmatlarini amalga oshirishda xalqaro amaliyotda ham xarajatlarning salmoqli ulushi xususiy bo'lmagan manbalarining hissasiga to'g'ri kelishi ko'zga tashlanadi.

Butun jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra yuzaga kelayotgan kasalliklarning 50 foizi kishilarning yashash tarzi sababli bo'lsa, 15-20 foizi esa tibbiyot muassasalarining faoliyatiga bog'liq holda yuzaga kelmoqda [6].

Fikrimizcha, sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishga nisbatan berilgan yondashuvlarning o'zaro farqlari ko'rinsa-da, ularning g'oyaviy jihatlari o'zaro uyg'unlikni aks ettirishini qayd etish mumkin.

Mazkur masala O.Rayimberdiyevanining tadqiqot ishida sog'liqni saqlash muassasalarini moliyaviy resurslari tarkibi va manbalarini shakllantirish tartibi, ularni rejalashtirish, sarflanishini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan hamda sog'liqni saqlash tizimini moliyaviy jihatdan ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlari aniqlangan [7].

G.Qosimova ishida esa, davlat budgetidan ijtimoiy-madaniy tadbirlarini moliyalashtirish jarayonida sog'liqni saqlash sohasi xarajatlarini qoplash masalalari tadqiq etilgan [8].

A.Sultonova ilmiy tadqiqotida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda davlat budgeti mablag'lari o'mni xususida xalqaro tajribalar o'rganilgan. Ya'ni, tizim moliyalashtirilishini boshqarishning xorijiy tajribalari joriy etilishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [9].

O'.Rajabov tomonidan o'rganilgan ijtimoiy xizmatlar sohasida, jumladan, sog'liqni saqlash tizimida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan va sohani moliyalashtirishda budgetdan tashqari mablag'lar manbalarini kengaytirishga ustuvorlik berish asoslangan [10].

M.Turtayev ilmiy ishida aholining tibbiy xizmatlar bilan ta'minlanishida tibbiyot muassasalarining birlamchi bo'g'linlari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni shakllantirish hamda ularni moliyaviy ta'minlash masalalarini hal etishda marketingni tashkil etishning muhim jihatlari asoslab berilgan [11].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an'anaviy usullardan foydalаниldi. Iqtisodchi olimlarning dehqonchilikni rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda institusional va iqtisodiy stimullarning evolyusyon o'zgarishi natijasida yuqori maqsadlarga erishishda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash zarurati kelib chiqmoqda. O'z o'rnida sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish amaliyotining davlat mablag'lari hisobidan amalga oshirilishida uning maqsadi, funksiyalari, tamoyillari va mablag'larni taqsimlash metodlarini aniq tarzda nazariy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.



Sog'liqni saqlash tizimi ijtimoiy sohaning bir bo'g'ini sifatida, o'z funksiyalarini amalga oshirishda muassasalarining iqtisodiy munosabatlari va moliyaviy ta'minotining qay darajada shakllanganligi bilan uning istiqboli va rivojlanishi aks ettiriladi. Demak, sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish siyosati mazkur tizimni yanada takomillashishiga turki beruvchi asosiy omillardan biridir.

Sog'liqni saqlash tizimining ijtimoiy vazifasidan kelib chiqqan holda uni tashkil qilish va moliyalashtirishda quydagi tamoyillarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

- Qulay tibbiy yordam, ya'ni jamiyatning har bir a'zosining ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy imkoniyatlaridan qat'i nazar tibbiy yordamdan foydalanish sharoitini yaratilishi;
- Tibbiy yordamning sifati (ilmiy, texnologik va ijtimoiy sifati-aholini tibbiy xizmatga jalb etilish darajasi);
- Tibbiy xizmatlar haqida axborotlar (ularning to'liq ro'yxati asosida narxlar) berish, xususan bepul tibbiy xizmatning hajmi va turlari bo'yicha aniq ma'lumotlari etkazish;
- Bepul tibbiy xizmatdan foydalanishi mumkin bo'lgan shaxslar toifasi va imtiyozli reseptlari bo'yicha dorilar beruvchi dorixonalar ro'yxati.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan tamoyillar to'g'ri tatbiq etgan holda tashkil etilishi ko'p jihatdan budget hisobidan moliyalashtirishiga, mablag'larni oqilona tarzda natija uchun sarf etilishi albatta ko'rsatilgan faoliyat turlarining olib borishiga va maqsadli yo'naltirilishiga chambarchas bog'liq.

Sog'liqni saqlash tizimi moliyaviy ta'minotini etarlicha moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishini ko'p jihatdan jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy holatiga bog'liq. Chunki davlat iqtisodiy jihatdan qancha baquvvat bo'lsa, sog'liqni saqlash tizimi uchun shuncha ko'p mablag' ajratiladi. Jamiyatning ijtimoiy holati yaxshi bo'lsa qo'shimcha pullik xizmatlarni sotib olish uchun imkoniyat yaratiladi.

Sog'liqni saqlash tizimi hududlarga quydagicha ta'sir o'tkazadi:

- iqtisodiy tomondan hudud aholisi o'rtaida kasallikning kamayishi o'z navbatida hududga qo'shimcha moliyaviy resurslarini oqimi uchun imkoniyat yaratadi;
- demografik tomondan sog'liqni saqlash muassasalarini normal ishlashi aholi ko'payishiga, uni doimiy yashash joyidan ketib qolmasligi uchun sharoit yaratadi;
- ijtimoiy tomondan hududda yashash va hayot kechirish sifati yaxshilanadi, sog'lom komil insonlar yashaydigan hududda jinoyatchilik darajasi pasayadi;
- madaniyat sohasida insonlarning salomatligi sifat jihatidan yuqori bo'lgan hududlarda madaniyat rivojlanadi, odamlarda kitob o'qishga, san'atga, teatr va kinoga qiziqish ortib madaniy hayot faollandashadi.

O'z navbatida hududlar ham sog'liqni saqlash tizimiga o'z ta'sirlarini o'tkazadilar, chunki tizim hudud aholisi manfaatlarini hisobga olish lozim. Sababi hudud aholisini yangi-yangi tibbiy xizmatlarga bo'lgan buyurtmalarini kamayishi tibbiyot muassasalarini daromadlarini pasayishiga sabab bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish natijasida sog'liqni saqlash sohasi tijorat asosidagi hisob-kitoblarga asta-sekinlik bilan o'ta boshlaganligi sababli o'z faoliyatida moliyaviy siyosatni olib borishda katta erkinliklarga ega bo'ldilar. Ular bugungi kunda bozorga qanday xizmatlarni taklif qilishni o'zları mustaqil belgilaydilar. Bajarayotgan xizmatlar uchun baholar va ish sifati sohadagi samaradorlikka, muassasalarining obro'siga va iqtisodiy faoliyatiga katta ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi faoliyati jamiyat hayotiga, davlatning iqtisodiy va siyosiy holatiga birinchi darajali ta'sir o'tkazadi, shuning uchun xam soha bevosita qattiq nazorat ostida turadi. Shuning uchun ham soha davlat tomonidan qat'iy belgilangan me'yorlarga rioya etadi, hamda tijorat faoliyatida ma'lum chegaralanishlar mavjuddir (ma'lum toifa aholi uchun ko'rsatilgan xizmatlar davlat budjeti tomonidan qoplanib boriladi).

Sog'liqni saqlash tizimini davlat budgeti tomonidan moliyalashtirish davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatidan kelib chiqqan holda budgetni tuzish va bajarish bo'yicha yagona tartibga asoslanadi.

Ma'lumki, har qanday demokratik davlatda fuqarolar sog'ligi masalasi yuqori o'rinni egallaydi. Xususan, bizning mamlakatimizda ham sog'liqni saqlash nafaqat ijtimoiy sohaning balki, butun iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Zero, ushbu sohaga hukumat tomonidan yo'naltirilayotgan e'tibor hamda moddiy ta'minotning yuqoriligi mamlakatning kelajagini, oilalarning tinch-totuvliligin, fuqarolarning ma'naviy barkamolligi, shuningdek, aholi salomatligi davlatning xalqaro obro' e'tiborini belgilab beradi.

Mamlakatimizda bu kabi tibbiyot muassasalari ham fuqarolarning ayrim guruhlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatadilar. Bunday xizmatlarning hajmi, ro'yxati, ularni ko'rsatish tartibi hamda kompensatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi hamda buning evaziga hukumatimiz tomonida munosib ravishda imtiyozlar beriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sog'liqni saqlash tizimi qonun hujjatlari hamda amaliy faoliyat shakliga mos ravishda ikki katta guruhga bo'linadi:



1. Davlat davolash-profilaktika muassasalari
2. Xususiy davolash-profilaktika muassasalari

Bugungi kunda mustaqil vatanimizda boshqa tarmoqlarda bo'lgani kabi sog'lijni saqlash borasida ham xususiylashtirish va xususiy mulk egalari faoliyatini qo'llab quvvatlash tizimli ravishda amalga oshirilib kelin-moqda. Buning natijasida esa, xususiy tarmoqning ulushi va tibbiyot sohasidagi o'rnii kundan-kunga ortib bor-moqda. Xususan, 2017-yil 1-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Sog'lijni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sog'lijni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishi uchun zarur sharoit yaratish maqsadida qabul qilindi. Ushbu qarorda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytgacha xususiy tibbiyot muassasalariga 177 turdag'i tibbiy xizmatlarning atigi 50 tasi bo'yicha xizmat ko'rsatishga ruxsat etilgan bo'lib, qolganlari taqiqlangan edi. Endilikda esa, ular deyarli barcha xizmatlarni amalga oshira olishadi.

Ruxsat etilgan tibbiy xizmat turlariga kardiojarrohlik, neyrojarrohlik, mikrojarrohlik, onkologiya, anesteziologiya va reanimatologiya, gelmintologiya, intervitsion kardiologiya, immunobiologik va immunoferment tashxis qo'yish, qon-tomir, torakal va abdominal jarrohlik va tibbiyot sohasida talab yuqori bo'lgan boshqa yo'nalishlar kiritildi.

Shuningdek, qarorda keltirilishicha, xususiy tibbiyot muassasalari 2022-yilning 1-yanvariga qadar barcha turdag'i soliqlar va majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etildi. Bo'shagan mablag'lar ularni zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash, ularga servis-texnik xizmat ko'rsatish, tibbiyot maqsadlari uchun ehtiyoj qismlar, inventar va boshqa buyumlar xarid qilish, yangi bino va inshoatlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilishga maqsadli yo'naltiriladi.

Unga asosan 2017-yil 1-maydan boshlab sog'lijni saqlash sohasida kichik korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha cheklangan sonini 25 kishidan 100 kishigacha ko'paytirish belgilangan.

Soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida bo'shaydigan mablag'lar hisobidan xususiy tibbiyot muassasalarining aholi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi topshirildi.

Yuqorida keltirilgan qaror sharhida ko'rinish turibdiki, mamlakatimizda sog'lijni saqlash sohasida keng qamrovli islohatlar amalga oshirilmoxda. Bu borada alohida ta'kidlash lozimki, bu sohadagi islohotlarni asosiy negizi aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish barobarida, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo'llab quvvatlash hisoblanadi.

Shu o'rinda yana bir bor davlat sog'lijni saqlash sohasiga e'tibor qaratsak. Zero, dissertasiya ishimiz qamrovi bu sohaning yuqoridagi ikki tarmog'ini ham birdayin qamrab olishiga qaramasdan, asosiy urg'u aynan davlat sog'lijni saqlash sohasiga tushadi desak mubolag'a bo'lmash. Ushbu sohada obekt inson sog'lig'i muhofazasi bo'lganligi sabab ham, mamlakatimizda ushbu tarmoqning kattagina qismi hali-hanuz hukumat nazoratida va budget mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladi. Ushbu sohani moliyalashtirish boshqa sohalardan birmuncha farq qiladi.

Shuningdek, yuqordagi fikrlarimizdan oydinlashib ulgurgan, aynan sohaga tegishli bo'lgan o'ziga xos maqsad va vazifalar ham mavjud bo'lib, ushbu maqsadlar respublika doirasida hamda hududlar doirasida qonunan belgilangan.

Ushbu maqsad va vazifalarni keyingi sahifalarimizda tahlil etilgan tuman tibbiyot birlashmasi misolida yuqoridagi rasm asosida ko'rsatishimiz mumkin. Shuningdek, yuqoridagi qarorda tuman yoxud shahar tibbiyot birlashmalarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan.

- aholiga sifatli dastlabki ambulatoriya-poliklinika yordami ko'rsatish;
- dastlabki shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishni, bemorlarni statsionar davolashni, shuningdek qishloq vrachlik punktlariga, oilaviy poliklinikalarga, tuman (shahar)ning boshqa tibbiyot muassasalariga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish;
- kasalliklarning, eng avvalo, yuqumli va virusli kasalliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlarini hamda ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- samarali sanitariya-epidemiologiya nazoratini ta'minlash;
- bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishda diagnostika va davolash standartlarini joriy etish, shuningdek, tuman (shahar) tibbiyot muassasalari tomonidan ularga rioya etilishini nazorat qilish;
- aholi o'rtaida, oilada tibbiy madaniyatni oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ishlarini tashkil etish;



- tibbiyot kadrlarini joy-joyiga qo'yish, ulardan oqilona foydalanish, ularning malakasini oshirish hamda ularni tarbiyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tuman (shahar) sog'liqni saqlash muassasalarini prognozlashtirish, moliyalashtirish va ularning mod-diy-texnika ta'minotini tashkil qilish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sog'liqni saqlash tizimining boshqa sohalardan farqli tomoni shundan iboratki, undan insonlar birlamchi iste'mol sifatida foydalananadi. Boshqacha qilib aytganda tani og'riq sezgan har qanday insonni ko'ngliga na egulik, na kiyim-kechak, na orzu-istik sig'adi, na ishida unum-u hayotida hotirjamlik bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holatda, ne'matlar ichida eng ulug'i bo'lgan inson hayoti va salomatligini himoyachilar faoliyat yuritadigan ushbu sohani har tomonlama rivojlantirish, zamonaviy texnik-uskunalar bilan jihozlash, hamda sohani muntazam zamon talabiga moslab borishni kafolatlovchi huquqiy asos ham yaratilib kelinmoqda.

Bundan tashqari 2023-yilda Prezidentimiz tomonidan aholi tomonidan sog'liqni saqlash tizimiga ortib borayotagan talabni inobatga olgan holda, ushbu sohada xususiy sektorning o'rnnini yanada oshirish nazarda tutuvchi qonun qabul qilinib, ushbu qonunga ko'ra, xatto xususiy sektorda ham daromad olish barobarida, aholini yordamga muhtoj qatlamin qo'llab quvvatlashga qaratilayotganligini qarordan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkin.

Aytish joizki, avvalo hozirgi kunda tajribada bo'lib turgan joriy bemorlarning soniga qarab moliyalashtirish tizimini o'tish maqsadga muofiq. Zero, amaldagi tizim bo'yicha har doim ham shifoxonalardagi o'rinnlar soni bilan ularda davolanayotgan bemorlar soni mos bo'lavermaydi va ba'zan mablag'larning etishmaslik yoki ortiqchilik holatlari vujudga keladi. Joriy bemorlar soniga qarab moliyalashtirishda esa, budget mablag'larning manzilliliqi yanada ortadi va xizmat ko'rsatish sifati ham o'sadi. Boisi bunda mablag'lar aynan bemorning extiyojlaridan kelib chiqib yo'naltiriladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaathomasi. –28.12.2018-y.
2. Кабанова, Н. А.. Государственная экономическая политика по формированию и использованию человеческих ресурсов. – Москва, 2006.
3. Оганесян, А. А. (2015). Реформы здравоохранения Франции как части общественного сектора экономики.
4. Дробозина, Л. А., Окунева, Л. П., & Андросова, Л. Д. (2000). Финансы. Денежное обращение. Кредит/ЛА Дробозина, ЛП Окунева.
5. Всемирная организация здравоохранения. (2006). Работа на благо здоровья: Познакомьтесь со Всемирной организацией здравоохранения.. Всемирная организация здравоохранения. <https://apps.who.int/iris/handle/10665/97518>
6. Джунусова Д.А. Совершенствование механизма финансирования медицинских услуг в системе охраны здоровья населения Республики Казахстан. Автореф. дисс. к.э.н. – Алматы: 2008. – с. 26.
7. Rayimberdiyeva O.R. Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta'minlashni tashkil qilish: i.f.n. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2001. – 21 b.
8. Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda budget siyosatining roli (O'zbekiston Respublikasi misolida): i.f.n. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2001. – 22 b.
9. Sultonova A.O'. Sog'liqni saqlashni bozor munosabatlari orqali tartibga solishning halqaro amaliyoti: i.f.n. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2001. – 21 b.
10. Rajabov O'.D. Ijtimoiy xizmatlar sohasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlari va ustuvor yo'nalishlari: i.f.n. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – 26 b.
11. Тұртаев М.Р. Маркетинг медицинских услуг в условиях рыночных реформ и пути его совершенствования: автореф. дис. ... к.э.н. – Тошкент, 2005. – 23 c.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.